O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

PROFESSIONAL TA’LIMNI
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

Boshlang‘ich kasbiy ta’lim darajasi

Umumta’lim fan



Tarbiya fanidan namunaviy o‘quv dasturi

Toshkent-2025

Mazkur umumta’lim fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etildi.

Tuzuvchi:

Shayxontohur tuman politexnikumi “Tarbiya” fani o‘qituvchisi	Pulatova Nilufar Abduraxmanovna
Chilonzor tuman 1-son politexnikumi “Tarbiya” fani o‘qituvchisi.	Boboqulova Sadoqat Shodikulovna
Professional ta’limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi	Turganova Komila Islamovna

“TARBIYA” FANI O‘QUV DASTURI
(60 soat)

I BOB. OILAVIY HAYOT QADRIYATLARI
(8 soat)

Vatan yagona. Vatan qadri. Vatan oldidagi mas’uliyat. Mardlik va shijoat timsollari haqida. (2 soat)

Oila Vatan ichra Vatan. Oila nima? Mehr-oqibat tuyg‘usi. Oilaviy hayot uchun zarur shaxsiy fazilatlar va bilim-ko‘nikmalarni o‘rgatish. Muqaddas kitoblarda berilgan oila haqidagi qarashlar. Oila haqida ajdodlarning o‘gitlari. Dasturxon boshida va boshqa vaziyatlarda o‘zini tutish odoblari.

Oila baxt qo‘rg‘oni. Salomatlikka e’tibor. O‘sish bilan bog‘liq jismoniy, ijtimoiy va hissiy o‘zgarishlar haqida tushunchalar. Oila salomatligiga oila a’zolarining birdek mas’ulligi haqida. Ovqatlanish madaniyati. Halol va sog‘lom turmushga boshlaydigan fazilatlar. (2 soat)

Oiladagi burch va mas’uliyat. Ota-onalik, aka-ukalik, opa-singillik burchlari. Bobo-buvilarning oiladagi o‘rni. Qarindoshlarga munosabat. Oila a’zolarining oiladagi vazifalari va burchlari. Ibrat va namunalar. Munosib farzand bo‘lish odobi. Gender tengligi. Farzandlik burchi, mas’uliyatiga oid allomalarning fikrlari. Ota-onaga xizmat qilishga rag‘batlantiruvchi fazilat va ko‘nikmalar. (2 soat)

Baxt manzillari. Baxt va baxtli bo‘lish haqida. Baxt haqida rivoyat va allomalarning fikrlari. Baxtli hayoting ustunlari haqida. (2 soat)

Loyiha ishi.

II BOB. INSON VA JAMIYAT
(8 soat)

Mahalla qadriyatlar beshigi. Mahallaning jamiyat va davlat ravnaqidagi o‘rni.(2 soat)

Jamiyatning ma’naviy asoslari. Dinning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati. Milliy an’analarimiz va qadriyatlarimiz haqida.(2 soat)

Din va madaniyat. Din tushunchasining mazmuni. Dunyo dinlari va ularning inson hayoti, yashashdan maqsadi haqidagi qarashlari. Jahon va milliy dinlarda va ulardagi ilgari surilgan g‘oyalar. Muqaddas kitoblarda bitilgan umuminsoniy g‘oyalar. (2 soat)

Dunyo dinlarida insonparvarlik g‘oyalari. Muqaddas kitoblarda e’tiqod, vatanparvarlik, shukronalik, kechirimlilik, qanoat, sadoqat kabi fazilatlar haqida. Muqaddas kitoblar va ularda odamiylik fazilatlarning ulug‘lanishi. Milliy va diniy bayramlar, marosim va an’analar.

Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya. Ajdodlar merosida milliy tarbiya. Odob va axloq, imon-e'tiqod, muomala madaniyati. Diyonat, hamiyat, oriyat, daxldorlik – munosib hayotning garovi. (2 soat)

Loyiha ishi.

III BOB. IJTIMOIY TARMOQ: IMKONIYAT VA TAHDIDLAR (6 soat)

Buzg'unchi g'oyalar. Sog'lom e'tiqodga tahdid. Diniy tushunchalarning g'arazli maqsadda talqin etilishi. Buzg'unchi ta'sirlardan himoyalanish. Turli sektalar. Ksenofobiya. (2 soat)

Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish. Ekstremizm va terrorizmning tahdidi. Jaholatga qarshi ma'rifat. Dinlararo bag'rikenglik. Millatlararo totuvlik.(2 soat)

Xavfsiz media ummoni. Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy tomonlari. Ijtimoiy tarmoqda shov-shuv ortidan quvmaslik, noo'rin chiqishlar bilan munozarali vaziyatlarni yuzaga keltirmaslikni anglash. Ijtimoiy tarmoqlardan shaxsiy rivojlanish yo'lida unumli foydalanish. Ijtimoiy tarmoqning salbiy ta'siridan himoyalanish. Axborot iste'moli madaniyati. Odam savdosi. (2 soat)

Soxta xabarlar ortida nima bor? Soxta axborotlardan himoyalanish va soxta xabarlardan himoyalanish. "Fact-checking" – informatsiya bilan ishlashda ma'lumotlarni tekshirishning zamonaviy usullaridan foydalanish. Axborotlarning inson ruhiyatiga ta'siri. Internet tarmog'idagi axborot urushi. Yolg'on ma'lumotlarning maqsadini anglash. Ma'naviy tahdidlar. Yolg'on axborot tarqatish va uning oqibatlari.Media madaniyat. Kiber makon.

Loyiha ishi.

IV BOB. MEHNATSEVARLIK, TADBIRKORLIK VA KASBIY KO'NIKMALAR (8 soat)

Baxtli hayot poydevori. Mehnat va mehnatsevarlik. Mehnat qilish zarurati. Hunarning inson hayotidagi ahamiyati. Halol mehnat – baxtli hayot poydevori. (2soat)

Iste'mol va tadbirkorlik madaniyati. Milliy qadriyatlarda tadbirkorlik haqida qarashlar. Rostgo'ylik. Zamonaviy ishbilarmonlik g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalari. Tadbirli bo'lish har jabhada muvaffaqiyat garovi. (2 soat)

Kasb tanlash sirlari. Kasb tanlashda oilaviy an'analar. Yaxshi xodimga xos jihatlar. Jamoaviylikning ahamiyati. Raqobatbardosh mutaxassis bo'lish zarurati. (2 soat)

O‘zgarishlardan to‘xtamaslik. Ilm olish sirlari. Umr bo‘yi o‘rganish. O‘z tilini sevish va o‘zga tillarni hurmat qilish. Zamonaviy bilimlarni egallash va moslashuvchanlik. O‘z iste’dod, qiziqish va ko‘nikmalarini rivojlantirish.(2 soat)

Iroda. Maqsadga yetishda irodaning o‘rni. Boshlagan ishni oxiriga yetkazish. Matonat, iroda, tirishqoqlik. Imkoniyati cheklanganlar imkoniyatlari. Maqsad yo‘lida barqaror bo‘lish. Irodani mustahkamlash yo‘llari.

Umumlashtiruvchi dars: Baxt formulasi haqida. Hayotda o‘z o‘rnini topish.

V BOB. OILAVIY QADRIYATLAR
(6 soat)

Vatan taraqqiyotida men mas’ulman. Mas’uliyat tushunchasi. Inson daxldorligi. Vatan taraqqiyotiga kim munosib hissa qo‘sha oladi. (2 soat)

Erkin va farovonlik hayot mazmuni. Moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligi haqida. Bugungi kunda davlatimizda farovon turmush, yurt tinchligi, jamiyat rivoji uchun amalga oshirilgan ishlar haqida. (2 soat)

Dadil qadamlar bilan katta hayot sari. Mustaqil hayotga qadam qo‘yishda amal qilish kerak bo‘lgan qoidalar. Vatanimizning fidoyi farzandlari haqida. (2 soat)

Oila mas’uliyati, sha’ni qadri. Muqaddas kitoblar va ajdodlar merosida baxtiyor oila qo‘rg‘onini qurishga oid qarashlar, tavsiyalar. Oilada tomonlarning majburiyatlari.

Loyiha ishi.

VI BOB. INSON MA’NAVIYATI
(8 soat)

Ibrat maskani. Mahalla haqida. Ajdodlarimizning mahalla haqidagi qarashlari. Mahallada qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi haqida.(2 soat)

Bag‘rikenglik. O‘zbekistonda din va davlat munosabatlari. Diniy bag‘rikenglik madaniyati va konfessiyalararo muloqot. Diniy bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish zarurati. Diniy va dunyoviylik uyg‘unligiga rioya qilish uchun nima qilish kerak? (2 soat)

Ksenofobiya. Ksenofobiya, xristianofobiya, yudofobiya, islamofobiya tushunchalari haqida. Ksenofobiya irqiy yoki diniy kamsitishlarga sabab bo‘lishi haqida ma’lumot va matnlar. (2 soat)

Missionerlik – yoshlar kelajagiga tahdid. Buzg‘unchi g‘oyalariga qarshi immunitet hosil qilish ko‘nikmasi. E’tiqod va ezgulik. Ekstremizm, terrorizm, prozelitizm. Missionerlik va prozelitizmning yoshlar ongi va kelajagiga ta’siri. Xalqaro missionerlik uyushmalari. Missionerlik geosiyosiy o‘yinlar quroli sifatida.

Kibermakonda axborot iste’moli madaniyati. Zamonaviy axborot tarmoqlari va din omili. Din va kinematografiya. Din va badiiy adabiyot. Virtual messenjerlar va ulardan turli ekstremistik oqimlarning foydalanishi. O‘zbekistonda axborot xurujlarining oldini olish bo‘yicha harakatlar.(2 soat)

Dinlarda tinchlik g‘oyasi. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish. Xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda millatlar va dinlararo totuvlikning ahamiyati. Mafkuraviy immunitet haqida.

Loyiha ishi.

VII BOB. GO‘ZAL FAZILATLAR
(8 soat)

Tuyg‘ularning xilma – xilligi. Tuyg‘ular haqida. Tuyg‘ularning xilma – xilligi: Vatanga, Ota-onaga, insonlarga muhabbat tuyg‘usi haqida. (2 soat)

Nafosat va ma’naviyat. Nafosatning inson hayotidagi o‘rni. Go‘zallik. Nafosat va ma’naviyat. Did va tashqi ko‘rinish. So‘zlash madaniyati. (2 soat)

Surat va siyrat. Imidj haqida. Shaxs, tashkilot, o‘quvchi imidji haqida. Dress-Code haqida. (2 soat)

Etiket. Etiketning inson ma’naviyatidagi o‘rni. Muloqot madaniyati va turlari haqida. Jamoaviy mashg‘ulot. (2 soat)

Loyiha ishi.

VIII BOB. SHAXSIY RIVOJLANISH
(8 soat)

Renessans poydevori. Birinchi va Ikkinchi Renessans allomalari haqida**.** Uyg‘onish davrining tayanch ustunlari haqida. Allomalarimizning tarbiya haqidagi qarashlari. Ularning jahon ilm – fani rivojida qo‘shgan hissasi haqida. (2 soat)

Halollik vaksinasi. Halollikning inson hayoti va jamiyat uchun ahamiyati. Halollik haqida. Halol luqma va halollik haqida hayotiy hikoyalar. Kasbda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur jihatlarning inson hayotidagi tutgan o‘rni. (2 soat)

Havas qil va oldinga intil. Hasad va havas haqida ibratli hikoyalar. Hasadni keltirib chiqaradigan illatlar va hasad balosi haqida. (2 soat)

Mehnatidan qadr topgan ayollar. Jamiyatimizda o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan ayollarimiz va ularning hayot yo‘llari haqida. Mehnat davomida o‘rganishdan to‘xtamaslik, o‘z ustida ishlash va mehnatkashlik ko‘nikmalari.

Mustaqil hayot bo‘sag‘asida – men tanlagan yo‘l. Men tanlagan yo‘l mavzusida loyiha ishi. Maktab uchun esdalik. Izdoshlarga tilaklar. (2 soat)

Umumlashtiruvchi dars.

Mavzuni rejalashtirish

T/r	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	**Nazariy**	**Amaliy**
1.	Oilaviy hayot qadriyatlari	8	6	2
2.	Inson va jamiyat	8	6	2
3.	Ijtimoiy tarmoq: imkoniyat va tahdidlar	6	4	2
4.	Mehnatsevarlik, tadbirkorlik va kasbiy ko‘nikmalar	8	6	2
5.	Oilaviy qadriyatlar	6	4	2
6.	Inson ma’naviyati	8	6	2
7.	Go‘zal fazilatlar	8	6	2
8.	Shaxsiy rivojlanish	8	6	2
	Jami:	**60**	**44**	**16**